

**SHARTNOMA(OFERTA) № $\{\text{contractNumber}\}$
jismoniy shaxsga foydalanish uchun
xalqaro $\{\text{Contract_Product_Name}\}$ kartasini
taqdim etish to'g'risida**

$\{\text{city}\}$

$\{\text{date}\}$.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, $\{\text{filialName}\}$ — O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki muassasasi rahbari $\{\text{filialChief_Full}\}$ nomidan, $\{\text{docDate}\}$ sanali $\{\text{filialChiefDocNum}\}$ -sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi, bundan buyon "BANK" deb ataladi, bir tomondan, va $\{\text{clientFullName}\}$ (pasport: $\{\text{passport}\}$, $\{\text{passportRegPlace}\}$ tomonidan $\{\text{passportRegDate}\}$ sanada berilgan), bundan buyon "KARTA EGASI" deb ataladi, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb atalib, ushbu SHARTNOMANI quyidagicha tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TA'RIFLAR

MKH	Xalqaro KARTA uchun Protssessing markazi tomonidan ochiladigan milliy va xorijiy valyutadagi maxsus karta hisobvarag'i.
KARTA	Ushbu SHARTNOMA asosida BANK tomonidan KARTA EGASI nomiga chiqarilgan, VISA yoki MASTERCARD logotipiga ega bo'lgan debet to'lov kartasi. KARTA KARTA EGASINING MKH hisobvarag'i bo'yicha bir necha marotaba operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.
EKVAYER	O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan, VISA yoki MASTERCARD a'zosi bo'lgan moliyaviy institut bo'lib, o'z xizmat ko'rsatish tarmog'ida KARTALARNI qabul qiladi.
SK	Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi – mulkchilik shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan va EKVAYER bilan tuzilgan shartnoma asosida tovarlar yoki xizmatlarni sotishda KARTANI qabul qiluvchi savdo va xizmat ko'rsatish korxonasi.
SHARTNOMA	Ushbu SHARTNOMA hamda unga oid barcha ilova va qo'shimchalar.
TRANZAKSIYA	KARTA EGASI tomonidan EKVAYER xizmat ko'rsatish tarmog'ida KARTA orqali amalga oshiriladigan har qanday naqd yoki naqsiz operatsiya.
PM	BANKning protssessing markazi bo'lib, avtorizatsiyani amalga oshirish, tranzaksiyalarni qayta ishlash, MKH hisobvarag'iga mablag'larni qaytarish bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish hamda boshqa moliyaviy axborotni taqdim etish uchun zarur dasturiy ta'minot bilan jihozlangan uskunalar.
USKUNALAR	USKUNALAR – quyidagilar tushuniladi: BANKOMAT – EKVAYER xizmat ko'rsatish tarmog'ida KARTALAR bo'yicha naqd pul berish va mijozlarga ularning karta hisobvaraqlari holati haqida ma'lumot taqdim etish uchun mo'ljallangan elektron qurilma. TERMINAL – SKda xizmat ko'rsatish, EKVAYER BHM/BHOlda naqd pul berish, shuningdek mijozlarga ularning karta hisobvaraqlari holati haqida ma'lumot taqdim etish uchun mo'ljallangan elektron qurilma.
AVTORIZATSIYA	SK/EKVAYER tomonidan elektron yoki ovozli so'rov asosida, KARTA EGASI ishtirokida yoki KARTA EGASI tomonidan bankomat orqali mustaqil amalga oshiriladigan tranzaksiyani bajarishga PM tomonidan beriladigan ruxsat. Avtorizatsiya KARTA EGASINING to'lovga layoqatligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Avtorizatsiya kodi kvitansiyada aks ettiriladi.
PIN	KARTA EGASI tomonidan bankomat/terminal orqali operatsiyalarni amalga oshirishda vakolatini tasdiqlash uchun mo'ljallangan shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN, shuningdek, tranzaksiyalarni amalga oshirishda KARTA EGASINING shaxsiy imzosi tenglashtiriladi.
STOP-LIST	Yo'qolgan yoki o'g'irlangan KARTALAR raqamlarining elektron ro'yxati bo'lib, ular olib qo'yilishi va BANKka qaytarilishi lozim. Ushbu ro'yxat KARTA EGASINING arizasi asosida yoki BANK tashabbusi bilan shakllantiriladi.
KVITANSIYA	KVITANSIYA – quyidagilar tushuniladi: CHEK – tranzaksiya amalga oshirilgandan so'ng terminal yoki bankomat tomonidan chop etiladigan elektron xabarnoma. SLIP – SK/EKVAYER tomonidan yoki imprinter orqali, PMdan avtorizatsiya olingandan so'ng rasmiylashtiriladigan qog'oz xabarnoma.
KREDIT-VAUCHER	KARTA orqali ilgari to'langan tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan voz kechilgani to'g'risidagi kvitansiya bo'lib, SK tomonidan chek yoki slip shaklida rasmiylashtiriladi va mablag'larni MKH hisobvarag'iga qaytarish uchun mo'ljallangan. Kredit-vaucher avtorizatsiya kodini talab qilmaydi.
TARIF	BANK tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlari uchun undiriladigan komissiya to'lovlari stavkalari. Tarif BANK tomonidan tasdiqlanadi.
AXBOROT XIZMATLARI	Bank mijozlarini ularning depozit va karta hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar haqida xabardor qilish, shuningdek yangi mahsulotlar va xizmatlar, reklama va boshqa turdagi ma'lumotlarni mobil aloqa va internet provayderlari tarmoqlari orqali (SMS, E-mail va boshqalar) axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda taqdim etish.
XATO KIRITIB QO'YILGAN PUL MABLAG'LARI	Bankka tegishli har qanday tizimda yoki uchinchi tomon tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar yoki boshqa sabablarga ko'ra (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: Bank xodimlarining xatolari, tomonlardan birining hisob-kitobdagi xatolari va boshqalar) Bank BHM/BHOlda tomonidan mijozning bank kartalariga xato ravishda o'tkazib yuborilgan pul mablag'lari.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Ushbu SHARTNOMA KARTANI chiqarish (emissiya qilish) va undan KARTA EGASI tomonidan foydalanish tartibi hamda shartlarini belgilaydi.
- 2.2. KARTA O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida EKVAYER xizmat ko'rsatish tarmog'ida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun naqsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, EKVAYER xizmat ko'rsatish tarmog'ida o'rnatilgan USKUNALAR orqali naqd pul olish, shuningdek xalqaro to'lov tizimlari qoidalarida nazarda tutilgan boshqa to'lov operatsiyalarini bajarish uchun qat'iy ravishda foydalaniladi. Shuningdek, KARTA O'zbekiston Respublikasi hududida aviakompaniyalar va ularning agentliklaridagi aviachipta kassalarida o'rnatilgan POS-terminallarda yoki BANK muassasalarida notijorat xarakterdagi operatsiyalarni (davolanish va/yoki o'qish uchun xorijga pul o'tkazish) amalga oshirishda foydalanilishi mumkin.

3. KARTADAN FOYDALANISH TARTIBI VA SHARTLARI

- 3.1. KARTA BANK mulki hisoblanadi va vaqtincha foydalanish uchun beriladi. KARTA uning old tomonida ko'rsatilgan muddatgacha amal qiladi. Amal qilish muddati tugagan KARTADAN foydalanish taqiqlanadi.
- 3.2. BANK KARTANI BANK tomonidan belgilangan muddatga (5yil) chiqaradi va shaxsan KARTA EGASIGA topshiradi.
- 3.3. BANK ushbu SHARTNOMA bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun BANK TARIFIGA muvofiq komissiya undirish huquqiga ega.
- 3.4. KARTA EGASI MKHni kartadan kartaga o'tkazish, BHM/BHOga kelgan xolda naqd yoki naqtsiz ko'rinishda va me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda to'ldirishi mumkin. MKHdan mablag'larni qaytarish KARTA EGASI tomonidan yopilganda amalga oshiriladi. Bunda MKHdagi qoldiq quyidagi tartibda qaytariladi:
 - 3.4.1. o'zaro hisob-kitobga taqdim etilmagan avtorizatsiya qilingan TRANZAKSIYALAR mavjud bo'lmagan taqdirda — ariza berilgan kundan boshlab 3 bank kuni ichida;
 - 3.4.2. o'zaro hisob-kitobga hali taqdim etilmagan avtorizatsiya qilingan TRANZAKSIYALAR mavjud bo'lgan taqdirda — ular taqdim etilishiga qarab, ariza berilgan kundan boshlab 33 kalendar kuni ichida.
- 3.5. Avtorizatsiya qilingan va amalga oshirilgan TRANZAKSIYALAR bo'yicha summalar EKVAYER tomonidan to'lovga taqdim etilgan vaqtdan boshlab, shuningdek KARTA EGASI mablag'larni qaytarish yoki MKHni yopish to'g'risida ariza bergan taqdirda, KARTA EGASINING MKH hisobvarag'idan yechib olinadi va MKH bo'yicha ko'chirmalarda aks ettiriladi. Ushbu ko'chirmalar KARTA EGASIGA uning yozma arizasi asosida beriladi.
- 3.6. KARTA EGASI KARTANING yo'qolganligi haqida BANKni xabardor qilgan taqdirda (telefon orqali yoki AXBOROT XIZMATLARI vositasida), BANK KARTA EGASINI identifikatsiya qiladi, uning MHK hisobvarag'i bo'yicha barcha operatsiyalarni vaqtincha to'xtatadi (kartani bloklaydi) va KARTA EGASINING keyingi yozma ko'rsatmalarini kutadi. KARTA EGASIDAN yozma ariza olinganidan so'ng:
 - 3.6.1. karta yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi sababli qayta chiqarish to'g'risida — BANK KARTANI qayta chiqaradi;
 - 3.6.2. karta yo'qolganligi haqida (asl nusxa yoki elektron shaklda) — KARTA stop-listga kiritiladi.

4. BANKNING HUQUQLARI

- 4.1. BANK quyidagi huquqlarga ega:
 - 4.1.1. KARTA EGASIGA KARTANI chiqarish/qayta chiqarishni rad etish, KARTADAN foydalanib operatsiyalarni to'xtatib turish, KARTANI olib qo'yish, yo'q qilish va MKHni yopishi mumkin, agar:
 - KARTA EGASI SHARTNOMA talablari, amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalarini yoki BANKning ichki me'yoriy hujjatlarini buzgan bo'lsa;
 - bu haqda KARTA EGASINING topshirig'i mavjud bo'lsa;
 - KARTA EGASI o'z harakatlari bilan BANKni asossiz moliyaviy xavf ostiga qo'ysa;
 - KARTADAN yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanilayotganligini aniq belgilari mavjud bo'lsa;
 - KARTANI olish uchun berilgan arizada noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lsa;
 - BANK ixtiyoriga ko'ra boshqa hollarda.
 - 4.1.2. KARTA EGASINING MKH hisobvarag'idan bahssiz tartibda quyidagilarni yechib olish:
 - amalga oshirilgan TRANZAKSIYALAR bo'yicha summalarni;
 - KARTA EGASI SHARTNOMA shartlarini buzishi natijasida BANK tomonidan qilingan barcha xarajatlarni;
 - BANK TARIFIGA muvofiq KARTA orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar va boshqa xizmatlar uchun komissiya to'lovlarini;
 - Mijoz kartasiga pul mablag'lari xato tarzda o'tkazilgan va natijada mijozning BANK oldida qarzdorligi yuzaga kelgan taqdirda, mijozning istalgan bank kartasidan pul mablag'larini.
 - 4.1.3. BANKning narx siyosatidan kelib chiqib, TARIFga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish va bu haqda KARTA EGASINI mavjud aloqa vositalari orqali xabardor qilish.
 - 4.1.4. Xalqaro to'lov tizimlari talablariga muvofiq, naqd pul berish bo'yicha (jumladan bankomatlar orqali) limitlar belgilash.
- 4.2. BANK amaldagi qonunchilik, ushbu SHARTNOMA, xalqaro to'lov tizimlari qoidalarini va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

5. BANKNING MAJBURIYATLARI

- 5.1. BANK quyidagilarga majbur:
 - 5.1.1. KARTA EGASINING yozma arizasi asosida (chiqarish/qayta chiqarish), KARTA EGASINING imzosi bilan, belgilangan tartibda KARTANI topshirish.
 - 5.1.2. KARTA orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash.
 - 5.1.3. KARTA EGASINING arizasi asosida uni SMS va E-MAIL xabarnoma xizmatlaridan foydalanishini ta'minlaydi.
 - 5.1.4. EKVAYER xizmat ko'rsatish tarmog'ida amalga oshirilgan TRANZAKSIYALAR summalariga KARTA EGASINING MKHni debetlash.
 - 5.1.5. SHK/EKVAYER belgilangan tartibda KREDIT-VAUCHER taqdim etgan taqdirda, KARTA EGASINING MKHni kreditlash;
 - 5.1.6. Agar KARTA EGASI axborot xizmatlariga ulangan bo'lsa:
 - a. KARTA EGASIGA SMS, E-MAIL va/yoki shaxsiy WEB-kabinet orqali axborot xizmatlarini ko'rsatish;
 - b. KARTA EGASINING yozma arizasiga asosan, axborot xizmatlariga boshqa mobil telefon raqamlarini va elektron pochta manzillarini ulash, shu jumladan avval ulanganlarini o'chirish;
 - 5.1.7. KARTA EGASINING yozma arizasi asosida uning MKH bo'yicha ko'chirma taqdim etish;
 - 5.1.8. KARTA EGASI tomonidan mablag'larni qaytarish yoki MKHni yopish to'g'risida rasmiylashtirilgan ariza asosida xorijiy yoki milliy valyutada mablag'larni qaytarishni ta'minlash;
 - 5.2. BANK amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalarini va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

6. KARTA EGASINING HUQUQLARI

- 6.1. KARTA EGASI QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:
 - 6.1.1. O'z MKHsini to'ldirish;
 - 6.1.2. Tegishli ariza taqdim etilgan taqdirda, KARTANI chiqarish va qayta chiqarishni talab qilish;
 - 6.1.3. KARTADAN foydalanish qoidalarini hamda KARTA EGASI va BANKning KARTA orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha javobgarlik chegaralari to'g'risida BANKdan to'liq axborot olish;
 - 6.1.4. Telefon, elektron pochta va/yoki shaxsiy kabinet orqali axborot xizmatlaridan foydalanish;
 - 6.1.5. BANKka yozma ariza bilan murojaat qilgan holda yoki mustaqil ravishda shaxsiy WEB-kabinet orqali axborot xizmatlariga boshqa mobil telefon raqamini va/yoki elektron pochta manzilini ulash, shu jumladan avvalgi ulanganlarini o'chirish;
 - 6.1.6. BANK tomonidan ko'rsatiladigan axborot e'kni boshqa xizmatlardan voz kechish;
 - 6.1.7. Tomonlar o'rtasida MKH bo'yicha barcha bajarilmagan majburiyatlar to'liq tartibga solingan va KARTA BANKka qaytarilgan bo'lsa, KARTANI yopish to'g'risida yozma ariza taqdim etish orqali KARTAGA xizmat ko'rsatishni to'xtatish;
 - 6.1.8. EKVAYER tomonidan TRANZAKSIYA o'zaro hisob-kitoblarga taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida, KARTA orqali ilgari amalga oshirilgan TRANZAKSIYA bo'yicha MKHga mablag'larni qaytarishni talab qilish, quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:
 - SK/EKVAYER tomonidan belgilangan tartibda KREDIT-VAUCHER rasmiylashtirilishi va taqdim etilishi orqali;

- yoki SK/EKVAYERga nisbatan BANKda rasmiylashtirilgan e'tiroz (da'vo) bildirish orqali. Agar KARTA EGASI tomonidan TRANZAKSIYA o'zaro hisob-kitoblarga taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida BANKka e'tiroz taqdim etilmasa, bu KARTA EGASINING ushbu TRANZAKSIYAGA roziligi sifatida e'tirof etiladi.
- 6.1.9. Mablag'larni qaytarish yoki MKHni yopish to'g'risidagi ariza asosida mablag'larni qaytarish;
- 6.1.10. Yozma ariza asosida MKH bo'yicha bank ko'chirmasini olish;
- 6.1.11. KARTADAN foydalanishdan voz kechish va keyinchalik MKHni yopish;
- 6.1.12. O'z MKH bo'yicha amalga oshirilgan TRANZAKSIYALAR yuzasidan tushuntirishlar talab qilish;
- 6.1.13. KARTANI STOP-LISTga kiritish to'g'risida BANKka yozma murojaat qilish;
- 6.1.14. KARTANING amal qilish muddati tugashidan oldin, SHARTNOMA tuzilgan BANK muassasasiga KARTANI qayta chiqarish to'g'risida yozma ariza topshirish;
- 6.1.15. KARTA EGASI KARTA orqali amalga oshirilgan va KARTA EGASINING imzosi kvitansiyada mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni to'xtatib turish huquqiga ega emas.
- 6.2. KARTA EGASI amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalari va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

7. KARTA EGASINING MAJBURIYATLARI

- 7.1. KARTA EGASI QUYIDAGILARGA MAJBUR:
 - 7.1.1 KARTADAN SHARTNOMA asosida, amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalari va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq foydalanish;
 - 7.1.2 SHARTNOMA asosida amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalari va BANKning ichki hujjatlari buzilishi oqibatida BANK tomonidan ko'rilgan barcha xarajatlarni qoplash;
 - 7.1.3 KARTADAN faqat o'z MKHdagi foydalanish uchun mavjud mablag'lar qoldig'i doirasida foydalanish;
 - 7.1.4 KARTADAN unda ko'rsatilgan amal qilish muddati davomida foydalanish, amal qilish muddati tugagach esa KARTANI qayta chiqarish uchun BANKka topshirish;
 - 7.1.5 MKH yopilgan taqdirda KARTANI BANKka qaytarish, KARTA taqdim etilmagan taqdirda esa uning yo'qotilishi uchun TARIFga muvofiq jarima to'lash;
 - 7.1.6 KARTA BANKka topshirilgandan yoki amal qilish muddati tugaganidan so'ng, shuningdek yo'qolgan deb e'lon qilingan KARTA rekvizitlaridan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirmaslik;
 - 7.1.7 KARTANI BANKka qaytarishda uni faqat BANKning vakolatli xodimiga topshirish;
 - 7.1.8 Doimiy yashash manzili, pasport ma'lumotlari, shuningdek 5.1.3-bandda nazarda tutilgan axborot xizmatlari ulangan mobil telefon raqami va/yoki elektron pochta manzili o'zgargan taqdirda, bu haqda BANKni darhol xabardor qilish;
 - 7.1.9 BANKdagi o'z MKHdagi qoldiqni nazorat qilish hamda EKVAYER tomonidan o'zaro hisob-kitoblarga taqdim etilgan TRANZAKSIYALARNING haqiqiy summaları va BANK TARIFIGA muvofiq undiriladigan komissiyalar hisobidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik overdraftni bartaraf etish;
 - 7.1.10 KARTA orqali amalga oshirilgan TRANZAKSIYALAR summasi MKHdagi qoldiqdan oshib ketgan taqdirda yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash, bunda qarzdorlik MKHga kiritilgan yoki o'tkazilgan mablag'lar hisobidan quyidagicha so'ndiriladi:
 - 7.1.11 MKH bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgani uchun undiriladigan to'lovni qoplash;
 - 7.1.12 Hisobvaraqlar bo'yicha asosiy qarzdorlikni so'ndirish;
 - 7.1.13 Har oyda o'z MKH bo'yicha mablag'lar harakati to'g'risidagi ko'chirmani so'rab olish;
 - 7.1.14 KARTA orqali amalga oshirilgan TRANZAKSIYALARGA oid barcha hujjatlarni ular amalga oshirilgan kundan boshlab 6 (olti) oy davomida saqlash va KARTA orqali TRANZAKSIYALARNING qonuniyligini tasdiqlash yoki nizoli holatlarni hal etish maqsadida BANKning birinchi talabi bilan taqdim etish;
 - 7.1.15 KARTA yo'qolganligi, o'g'irlanganligi yoki o'z MKHga ruxsatsiz kirish holatlari aniqlangan taqdirda, darhol KARTANING orqa tomonida ko'rsatilgan telefon raqami orqali BANKning protsessing markaziga xabar berish yoki tegishli yozma ariza (bildirishnoma) yuborish. Agar KARTA EGASI yo'qotish, o'g'irlik yoki ruxsatsiz kirish holati haqida telefon orqali xabar bergan bo'lsa, u 1 (bir) ish kuni ichida BANKka elektron shaklda yoki asl nusxadagi ariza taqdim etishi shart, unda ariza berilgan sana va vaqt ko'rsatilishi lozim va/yoki KARTANI yo'qotish yoki o'g'irlanishi munosabati bilan qayta chiqarish so'raladi. Yozma ariza mavjud bo'lmagan taqdirda, tomonlar buni ushbu SHARTNOMANING 3.6-bandida nazarda tutilgan arizaning yo'qligi deb tan oladilar va protsessing markaziga MKHga kirishni qayta tiklash huquqini beradi. Bunday holatda, KARTA orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgarlik to'liq KARTA EGASIGA yuklanadi.
 - 7.1.16 KARTA bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar yuzasidan unga berilgan kvitansiyalarni imzolash;
 - 7.1.17 BANK bilan yaqin hamkorlik qilish va yo'qolgan yoki o'g'irlangan KARTANI topish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish;
 - 7.1.18 BANK TARIFIGA muvofiq, KARTA EGASI tomonidan KARTA yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'tkazish hamda boshqa xizmatlar ko'rsatganligi uchun BANKka komissiya to'lovlarini to'lash.
- 7.2. KARTA EGASI KARTANI uchinchi shaxslarga bermaslik va PIN-kodni UCHINCHI SHAXSLARGA oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.
 - 7.2.1. KARTA EGASI amaldagi qonunchilik, SHARTNOMA, xalqaro to'lov tizimlari qoidalari va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 8.1. BANK yo'qolgan yoki o'g'irlangan KARTA bo'yicha operatsiyalar uchun, faqat KARTA EGASI BANKka KARTA yo'qolganligi va/yoki o'g'irlanganligi yoki PIN-kodi kimlargadir ma'lum bo'lib qolganidan shubhalanayotgani haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan yozma ariza topshirgan kundan boshlab 3 bank kuni o'tgach, KARTA EGASINING MKH orqali amalda bajarilgan operatsiyalarga javobgar bo'ladi.
- 8.2. BANK QUYIDAGI HOLLARDA JAVOBGAR BO'LMAYDI:**
 - 8.2.1. BANKga bog'liq bo'lmagan har qanday sababga ko'ra AVTORIZATSIYA rad etilgan bo'lsa;
 - 8.2.2. BANK nazoratidan tashqaridagi holatlar sababli o'z majburiyatlarini bajara olmaganligi uchun;
 - 8.2.3. EKVAYER tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun KARTA EGASINING MKHdan undiriladigan komissiyalar turlari va miqdorlari, shuningdek EKVAYER tomonidan taqdim etilgan TRANZAKSIYALARNING amaldagi summaları uchun;
 - 8.2.4. KARTA EGASI KARTAGA oid ma'lumotlarning oshkor bo'lishiga yo'l qo'yishi natijasida UCHINCHI SHAXSLAR tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar uchun;
 - 8.2.5. KARTA EGASI SHARTNOMA, amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalari va BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq KARTADAN foydalanish qoidalari va tartiblarini buzgan bo'lsa;
 - 8.2.6. KARTA EGASI tomonidan qonunga xilof harakatlar sodir etilgan taqdirda;
 - 8.2.7. KARTA va/yoki PIN yo'qolishi KARTA EGASINING qo'pol ehtiyotsizligi yoki KARTAGA beparvo munosabati natijasida yuz bergan bo'lsa;
 - 8.2.8. TRANZAKSIYALAR BANK tomonidan KARTA yo'qolganligi/PIN oshkor bo'lgani/KARTANI yo'qotish yoki o'g'irlik sabab qayta chiqarish haqidagi KARTA EGASINING yozma arizasi olingan sanagacha (shu sanani ham qo'shgan holda) va ushbu ariza sanasidan boshlab 3 ish kuni ichida amalga oshirilgan bo'lsa;
 - 8.2.9. KARTA EGASI KARTANI va/yoki PINni va/yoki shaxsiy kabinetlarga kirish uchun login-parolni UCHINCHI SHAXSLARGA bergan yoki oshkor qilgan bo'lsa;

8.2.10. KARTA EGASI mobil telefon raqami va/yoki elektron pochta manzilini noto'g'ri ko'rsatganligi, shuningdek mobil raqam va/yoki elektron manzil o'zgartirish haqida BANKka o'z vaqtida xabar bermaganligi oqibatida yuborilgan SMS va E-mail xabarlar uchun.

8.3. KARTA EGASI QUYIDAGILAR UCHUN JAVOBGAR HISOBLANADI:

- 8.3.1. SHARTNOMA, amaldagi qonunchilik, xalqaro to'lov tizimlari qoidalar va BANKning ichki me'yoriy hujjatlari shartlarini buzganligi uchun;
- 8.3.2. PINni oshkor qilganligi va/yoki KARTANI uchinchi shaxsga berganligi uchun;
- 8.3.3. login/parolni oshkor qilganligi va/yoki mobil telefon raqami/elektron manzil/shaxsiy kabinetdan uchinchi shaxs foydalanishiga yo'l qo'yganligi uchun;
- 8.3.4. KARTA yo'qolganligi/PIN oshkor bo'lgani/qayta chiqarish haqidagi yozma ariza BANK tomonidan olingan sanagacha (shu sanani ham qo'shgan holda) va ariza sanasidan boshlab 3 ish kuni ichida sodir bo'lgan har qanday TRANZAKSIYALAR uchun;
- 8.3.5. KARTA EGASINING MKH bo'yicha mablag'lar harakati bilan bog'liq barcha moliyaviy operatsiyalar uchun;
- 8.3.6. SHARTNOMA shartlari va BANK TARIFIGA muvofiq, MKH bo'yicha mablag'lar harakati bilan bog'liq barcha xarajatlar uchun;
- 8.3.7. KARTA yopilgan taqdirda — KARTA BANKka qaytarilguniga qadar va u qaytarilgandan keyin 33 (o'ttiz uch) kalendar kun davomida barcha TRANZAKSIYALAR uchun;
- 8.3.8. ushbu SHARTNOMA shartlariga muvofiq KARTANI qaytarmaganligi uchun, shu jumladan MKH yopilganda — KARTA EGASI BANK TARIFIGA muvofiq jarima to'laydi;
- 8.3.9. BANKka taqdim etilgan barcha ma'lumotlarning ishonchligi (to'g'riligi) uchun.

9. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

- 9.1. Tomonlar SHARTNOMA shartlariga yozma ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin.
- 9.2. SHARTNOMAGA kiritilgan yozma o'zgartirish va qo'shimchalar ikki Tomon tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 9.3. O'zbekiston Respublikasi banklarida norezidentlarga hisobvaraqlar ochish va ulardan foydalanish to'g'risidagi Nizom yoki xalqaro to'lov tizimi qoidalar o'zgartirish taqdirda, BANK SHARTNOMA shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

10. SHARTNOMANING BEKOR QILINISHI

- 10.1. SHARTNOMA KARTADA ko'rsatilgan muddatgacha tuziladi va amal qiladi hamda KARTA qayta chiqarilgan taqdirda, qayta chiqarilgan KARTANING amal qilish muddati davomiga avtomatik ravishda uzaytiriladi.
- 10.2. SHARTNOMA teng yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har bir Tomon uchun bittadan nusxa beriladi va ikki Tomon imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Shuningdek, mijozning telefon nomeriga SMS kelib, mijoz tasdiqlagan taqdirda ham SHARTNOMA o'sha kundan kuchga kiradi.
- 10.3. SHARTNOMA KARTA EGASINING yozma arizasi asosida istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.
- 10.4. BANK talabi bilan SHARTNOMA quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
 - 10.4.1 KARTA EGASINING MKHda saqlanayotgan mablag'lar summasi bank qoidalarida belgilangan minimal miqdordan past bo'lib qolsa va ushbu summa bir oy ichida tiklanmasa;
 - 10.4.2 MKH bo'yicha 1 yil davomida operatsiyalar amalga oshirilmasa;
 - 10.4.3 KARTA EGASI ushbu SHARTNOMANING 7-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda.
- 10.5. KARTA EGASI talabi bilan SHARTNOMANI bekor qilish quyidagi shartlar bajarilganda mumkin:
 - ushbu MKHga birlashtirilgan kartalar SHARTNOMAGA muvofiq BANKka qaytarilgan bo'lsa;
 - KARTA EGASI SHARTNOMA bo'yicha barcha majburiyatlarni bajargan bo'lsa;
 - KARTA EGASINING BANK oldida qarzdorligi bo'lmasa.

11. MAXFIYLIK

- 11.1. Tomonlar SHARTNOMA tuzilishi bilan bog'liq holda ma'lum bo'lgan bank va tijorat siri, shuningdek har qanday maxfiy axborotni saqlash va oshkor qilmaslikni ta'minlash majburiyatini oladilar.
- 11.2. KARTA EGALARI va KARTADAN foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumotlar, shuningdek KARTALARNING o'zi haqidagi ma'lumotlar bank siri hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib hamda asoslarda taqdim etiladi.
- 11.3. Tomonlar KARTALAR bo'yicha operatsiyalar va ularda qo'llaniladigan dasturiy-texnik vositalar bo'yicha axborotni himoya qilish talablariga rioya qiladilar. Ushbu talablar xalqaro to'lov tizimlari tomonidan belgilanadi.
- 11.4. Tomonlar quyidagiga rozilik bildiradilar: "Bank siri to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek BANK tomonidan KARTA EGASIGA SMS va E-mail xabarnoma, shaxsiy WEB va IVR kabinetlari kabi axborot xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni BANK tomonidan berish (xabar qilish) bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.
- 11.5. Tomonlar xalqaro to'lov tizimlari tomonidan o'rnatiladigan axborotni himoya qilish talablariga rioya qiladilar.
- 11.6. Tomonlar quyidagiga rozilik bildiradilar: "Bank siri to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek BANK tomonidan KARTA EGASIGA SMS va E-mail xabarnoma, shaxsiy WEB va IVR kabinetlari kabi axborot xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlarni ko'rsatuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni BANK tomonidan berish (xabar qilish) bank sirini oshkor qilish hisoblanmaydi.

12. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

- 12.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldilar.
- 12.2. Taraflar ushbu bo'limdagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyani oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishini bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
- 12.3. Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu bo'limda belgilangan belgilangan shartning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qilishi shart.
- 12.4. Tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir taraflama to'xtatib turish yoki bekor qilishga, hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

13. SANKSIYA SHARTLARI.

- 13.1. Mijoz hisobvaraqlar bo'yicha amaliyotlar amalga oshirishda Sanksiyalarni buzmaslikni va qat'iy rioya qilinishni va ushbu shartnoma tuzilgan kundan boshlab mijoz har qanday iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalarni anglatuvchi sanksiyalarga rioya qilish va ularga rioya qilishga qaratilgan siyosat va protseduralarga amal qilishni, shu jumladan, AQSh Moliya vazirligining xorijiy aktivlarini nazorat qilish idorasi (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) yoki AQSh hukumat, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa davlatlar yoki boshqa davlatlar boshqa organlari, departamentlari va agentliklari tomonidan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar (keyingi o'rinlarda - Sanksiyalar)ga amal qilishni kafolatlaydi, tasdiqlaydi va ta'minlash kafolatini oladi.
- 13.2. Mijoz Sanksiyalar orqali taqiqlangan yoki ularga nisbatan ushbu bitimlarni tuzish Sanksiyalarni buzilishi yoki Sanksiyadagi shaxslar foydasiga ishlatilishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan xar qanday shaxs yoki tashkilotlar bilan bitimlarga jalb qilinmagan va jalb qilinmaydi.
- 13.3. Mijoz sanksiyalar ostida bo'lgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

13.4. Agar Mijozning qandaydir kafolati yolg'on, ishonchsiz va (yoki) noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlar Mijoz tomonidan ta'minlanmasa, Bank Mijozning to'lov topshiriqlari asosida amalga oshirilgan amaliyotlar tufayli mablag'lar qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday holda, Mijoz boshqa Tomonning da'vosini olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay ushbu Shartnomaning 3.2-bandida va 5 bo'limida nazarda tutilgan majburiyatni buzganligidan kelib chiqqan va/yoki Mijozning bunday kafolatining ishonchsizligi yoki noaniqligi natijasida paydo bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri va/yoki bilvosita zararlarni Bankka qoplab berishi shart. Shu bilan birga, Bank mijozga Shartnomani bajarishni bir tomonlama ravishda rad etish sanasidan 3 kalendar kun oldin xabarnoma yuborish orqali Shartnomani qisman yoki to'liq bajarishdan bir tomonlama ravishda voz kechish huquqiga ega.

13.5. Bank vakolatli organlar, tashkilotlar yoki banklar tomonidan salbiy choralar (pul mablag'lariga band solinishi; to'lovni rad etilishi va boshqalar) qo'llanishi uchun javobgar emas va Mijozga har qanday Sanksiyalar (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, jumladan OFAC, EU Sanctions Map va OFSI, SDN va CAPTA bilan cheklanmagan holda) tufayli Shartnoma bo'yicha Bank tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish lozimligi ko'rsatib o'tilganiga qaramasdan Shartnoma bo'yicha bank o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

13.6. Bank mijozning boshqa mamlakatlar qonunchiligi normalari bilan cheklangan yoki taqiqlangan (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, jumladan OFAC, EU Sanctions Map va OFSI, SDN va CAPTA bilan cheklanmagan holda) banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amaliyotlarini amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, Mijoz uning topshiriqlari/buyruqlari Bank tomonidan bajarilmaganligi uchun o'z Mijozlari oldida mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

13.7. Agar mijozning topshirig'ini bajarish tufayli Bankka jarimalar (boshqa mulkiy/nomulkiy sanksiyalar) qo'llanilsa, Mijoz bankka qo'yilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan har qanday zararni Bankka kompensatsiyalash, shuningdek bunday jarimalarni qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

14. NIZOLARNI HAL ETISH

14.2. Ushbu SHARTNOMANI bajarish bilan bog'liq ravishda Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

14.3. Muzokaralar yo'li bilan kelishmovchiliklarni hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, Tomonlar o'rtasidagi nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibda ko'rib chiqiladi.

15. YAKUNIY QOIDALAR

15.2. Ushbu SHARTNOMADA tartibga solinmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro to'lov tizimlari normalari hamda BANKning ichki me'yoriy hujjatlariga amal qiladilar.

15.2. Ushbu SHARTNOMA shartlari bilan xalqaro to'lov tizimlari normalari va/yoki BANKning ichki me'yoriy hujjatlari o'rtasida tafovut yuzaga kelsa, xalqaro to'lov tizimlari normalari va BANKning ichki me'yoriy hujjatlari ustuvor kuchga ega bo'ladi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

BANK: \${filialName}
BANK BO'LIMI/FILIALI

Manzil: \${bankAddress}

Karta egasi: \${clientFullName}

Manzil: \${address}
BANK BO'LIMI/FILIALI

Telefon raqami: \${phones}

Elektron pochta manzili: \${email}

BANK:

(IMZO)

M.P.

KARTA EGASI:

Ushbu SHARTNOMA va BANK TARIFI bilan
tanishdim va roziman.

(IMZO)